

TO'RA SULAYMONNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI

Ixtiyor Ermatov

GulDU dotsenti, F.F.D (DSc)

Eshboyeva Fazilat

GulDU stajyor o'qituvchisi

Mamatqulov Azizbek

GulDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15227320>

Buyuk shoirlarning o'ziga xos takrorlanmas uslubi, o'z ijod yo'li, so'z qo'llash mahorati bo'ladi. Kitobxon she'rni o'qir yoki eshitar ekan uning muallifini tezda topib oladi. Bu, albatta, ijodkorning betakror o'ziga xosligi tufaylidir. To'ra Sulaymon she'rlarida so'z qo'llash, ayniqsa, sheva so'zlaridan mahorat bilan foydalanishi o'ziga xos uslubni yaratishda qo'l kelgan.

Og'zaki va yozma nutqda qo'llanish hududiga ko'ra chegaralangan til hodisalari *dialektizmlar* hisoblanadi. Dialektal til birliklari umumtilga xos bo'lmay, milliy tilning mahalliy ko'rinishlari bo'lgan lahja va shevalarga xos bo'lgan hodisa sanaladi. Bu birliklar odatda biror dialektning vakillari nutqida ishlatilib, ko'pincha boshqa dialektlarning vakillariga, qolaversa, adabiy til normalariga taalluqli hisoblanmaydi.

Tilning biror mahalliy ko'rinishida ishlatiladigan barcha leksemalar shu dialektniki deb qaraladi, lekin dialektizm deb shulardan bir qismigina ajratiladi. Bunda adabiy til bilan dialekt uchun mushtarak leksemalar hisobdan chiqariladi [Sh.Rahmatullayev, 82].

Professor N.Mahmudov doston va uning tili xususida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Alpomish" dostonida o'zbek xalqining ko'hna va hamisha navqiron tili o'zining butun salohiyati bilan jilvalanadi. "Alpomish" dostoni o'zbek xalqi tilining xira tortmas ko'zgusi, jonli xalq tilining, xalq donoligining tarixi in'ikosidir [N.Mahmudov, 33]. Muallif ta'kidlagan "ko'hna va hamisha navqiron til"imizning lisoniy imkoniyatlaridan birini shevaga xos so'zlar tashkil qiladi.

Qozoqboy Yo'ldosh shoir ijodida folklor ta'sirini quyidagicha izohlaydi: O'zi-ku bizda folklordan ta'sirlanmagan ijodkor kamdan-kam. Lekin og'zaki ijodning ta'siri butun yozganlarida bo'y ko'rsatib turadigan To'ra Sulaymonday adib adabiyotimizda boshqa yo'q. Bu holning muayyan asoslari bor. Avvalo, To'ra Sulaymon folklor asarlari yaratilishi hali davom etayotgan davrda va shunday muhitda dunyoga kelib ulg'aydi. Bundan tashqari, uning tabiatida baxshilik unsurlari bor edi: u davralarni yoqtirmasdi, lekin ularsiz turolmasdi. Chunki davra ko'pniki, ko'pdan esa deyarli hamisha qandaydir hikmat topish mumkin. Universitetda o'qib yurganida ham kursdoshlari jahon adabiyoti namunalariga ruju qo'yib, shovshuvli asarlar izlaganlarida, u hech kimning topshirig'isiz o'z holicha qishloqma-qishloq yurib, odamlar og'zidan daftar-daftar folklor namunalarini yozib olar va turli gazeta-jurnallarda chiqarishga urinib yotar edi. Shuningdek, og'zaki ijod namunalarini qayta-qayta o'qib, zavqlanardi [A.Turdiyev, 160]. Yuqoridagi fikrlarning ta'siri bo'lsa kerak shoir ijodida dilektizmlar samoqli o'rinni egallaydi.

To'ra Sulaymonning shevaga oid so'zlardan mahorat bilan foydalanganligini quyidagilarda kuzatamiz.

*Xeshlarimning **bemavrid** ko'zlarida yosh ko'rsam,
 Bir mard bilan nopokning taqdirin tutash ko'rsam,
 Qaysi bir begunohni keng yo'lda **adash** ko'rsam,*

Bir **betayin** kimsaning oyog'ida bosh ko'rsam...

Ko'nglimda armon yotar

Terskaydagi qor misol [To'ra Sulaymon, 18].

Xesh sheva so'zi bo'lib *qarindosh* o'rnida qo'llangan. **Bemavrid** – o'rinsiz, noo'rin, bemahal, bevaqt ma'nolarida qo'llangan. **Adash** sheva so'zi bo'lib, adashib (chalkashib) ketish ma'nosida kelgan. Adabiy tilimizda esa *ismdosh, almashish, yanglish, noo'rin* ma'nolarida qo'llanishi ko'rsatilgan [O'TIL, I. 43]. *Betayin* – mujmal, maqsadsiz, tuturig'i, burdi yo'q, beqaror, tayinsiz ma'nolarini ifodalaydi. *Terskay* – quyoshga teskari, quyosh tushmaydigan, shimolga qaragan tog', balandlikk yonbag'ri, chuqurlik va b [O'TIL, V. 228].

Aro yo'lda qolguday bo'lsa biror yo'ldoshim,
 Manzilga yetmay turib qoqilsa **qayg'udoshim**,
 Muhtoj bo'lsa kimgadir jon ayamas **qurdoshim**,
Badkor degan nom olsa biron-bir vatandoshim,
 Ko'nglimda armon yotar
 Ulab bo'lmas tor misol [To'ra Sulaymon, 18].

Qurdosh – yoshi teng bo'lgan; tengdosh, tengqur [O'TIL, IV. 285]. Shoir *qurdoshim* sheva so'zini hatto shevalarda nofol qo'llansada she'riyatga olib kiradi, bu so'z qo'llanishini faollashtiradi. She'rda **badkor** sheva so'zi yaramas ishlar qiluvchi, yomon niyatli; berahm, shafqatsiz kishi ma'nosida qo'llangan. Bu misralarda kelgan *qayg'udoshim, qurdoshim* so'zlari shoir nutqiga xos okkonalizmlar hisoblanadi.

Ushbu she'rda ham leksik dialektizmlar qo'llanganligi kuzatish mumkin:

Hali ko'p **yoziq'im** borgan o'xshaydi,
 Shakar deb tutganim qorgan o'xshaydi.
 Bosgan yerim qora sho'rga o'xshaydi,
 Qor qora deganim **qurga** o'xshaydi [To'ra Sulaymon, 43].

Yoziq so'zi aynan *gunoh* so'zi o'rnida qo'llangan. Shevada *yoziq* so'zi mavjud bo'lib faol qo'llanadi. *Yoziq* asosiga *-im* egalik qo'shimchasi qo'shilishidan hosil bo'lgan. Shoir *yoziq'* (*gunoh*)larini *qur* (ququm)ga mengzaydi. Shoir **qur** so'zini "O'zbek tilining izohli lug'ti"da berilgan ma'nolardan boshqa ma'noda qo'llagan. *Qur* so'zi she'rda dialektik birlik sifatida qo'llangan va ququm ma'nosini beradi.

To'ra Sulaymon asarlarining tili xalq og'zaki ijodi namunalari tili bilan uyg'unlashib ketganligini kuzatamiz. Masalan:

"O'r kelsa o'mganlatdi,

Shuytib Hakim yo'l tortdi" [Fozil Yo'ldosh, 83].

"Borib chehib mindi bedov otdi, ikkovi uyiga yetdi" [Fozil Yo'ldosh, 12].

Boybo'ri va Boysarining chupron to'yda hurmat-izzat ko'rmaganligidan jahli chiqib, otiga minib, uyiga ketib qolishi tasviridagi *bedov* birligi dialektizm bo'lib, izohli lug'atda: "[f-t] bedav – uchqur, o'ynoqi (ot haqida). *Kun hisobin oy olar, bedav o'rning toy olar*" [O'TIL, I. 94].

"*Ana endi Barchinoyning enasi Barchinoydan bu so'zni eshitib, Barchinoyga tasalli berib, Barchinoyga qarab, nasihat berib, bir so'z dedi*" [Fozil Yo'ldosh, 24]. Mazkur misolda *ena* dilaektizmi Barchinoyning onasiga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, lekin tug'gan onasining onasi yoki otasining onasini ifodalagan emas. "ENA dial. Ona" [O'TIL, I. 446]. Ushbu birlikka nisbatan dialektal so'z deb qarash o'rinli. *Bedov, o'r, ena* kabi dilektal birliklarning To'ra Sulaymon asarlarida ham aynan shu ma'noda qo'llanganini kuzatish mumkin.

Bir bor ko'rolmasdan o'z tog'larimni,
 Sersada chamanni – qishloqlarimni,
 To'pori, **tobutkash** o'rtoqlarimni,
 Ochiq ketar bo'ldi ko'zlarim mening... [To'ra Sulaymon, 16].

Bu she'rdagi **tobutkash** so'zi To'ra Sulaymon nutqiga xos okkonalizm hisoblanadi. Bu kabi so'zlar shoir ijodida juda ko'plab uchraydi.

Mangulik maskanim, mangu ma'vomsen,
 Kindik qonim tomgan sohib karamsen,
 Kimga **qaznoq**, kimga Bog'i Eramsen,
 Jon bera bilmasmen Sendin bo'lakka... [To'ra Sulaymon, 6].

Ushbu bandda – *Kindik qoni to'kilgan* iborasi g'oya ta'sirini oshirgan, uning xalqchilligini ta'minlagan. Shoir vatanning bировlar uchun *qaznoq* bo'lsa, boshqa bировlar uchun Bog'i Eram ekanligini ta'kidlaydi. **Qaznoq** ombor vazifasini o'tovchi kichikroq xona, hujra [O'TIL, V. 67] shevaga oid so'z.

Har elning o'z muftiysi, qozi kaloni bo'lsin,
 Oqinlarining ham o'z aytar o'lan bo'lsin,
 Maydon talab erlari, **alp**, pahlavoni bo'lsin,
 Qarg'a, quzg'un qo'nolmas qo'shin, qo'rg'oni bo'lsin... [To'ra Sulaymon, 67].

O'zbek tilida "alp" so'zi qadimgi turkiy xalqlarda ikki qo'shin o'rtasidagi jang boshlanishidan oldin yakkama-yakka olishuvda ishtirok etuvchi jangchi hamda folklorda o'zbek xalq dostonlarida g'ayritabiiy kuchquvvati, mardligi, jasorati va shu kabilar bilan ajralib turadigan qahramon [O'TIL, I. 75] sifatidagi shaxslarga nisbatan ishlatilgan. *Alp* obrazining tarixiy kelib chiqishi, alplik tizimi shartlari maxsus tadqiq qilingan [Sh.Turdimov, 240], *alp* - xalq qahramoni, ham jismonan, ham ma'nan namuna bo'la oladigan obraz. Hozir ham *alp* so'zi qipchoq shevalarida faol qo'llanadi. To'ra Sulaymon bu so'zni she'rlarida faol qo'llagan, badiiy tasvir yaratishda qo'l kelgan hamda tasirchanlikni oshirishda qo'l kelgan.

Tushgan aravamning **jiri** bo'lakcha,
 Aytilgan **jirl**arning siri bo'lakcha.
 Bu el, bu ulusning turi bo'lakcha,

Ko'ngil berib, ko'ngil Ola bilmadim... .. [To'ra Sulaymon, 127].

She'rda qo'llangan "jir" so'zi shevalarda – qo'shiq ma'nosida qo'llanadi. Ko'rinadiki, shoir sheva so'zlarni ham o'z o'rnida qo'llab, ta'sirchanlikni oshirgan, badiiylik yarata bilgan. **Jirlamoq** shevaga oid so'z bo'lib, qo'shiq aytmoq, kuylamoq kabi ma'nolarni bildiradi [O'TIL, II. 661].

Ko'mmada, qo'rada neki bor – bari,
 Bog'u chorbog'lari, **lo'kchayu nori**,
 Bobolardan qolmish qo'ldagi tori
 Otadan bolaga qolsin, dedilar
 Otamning o'zini qayga ko'mdilar? [To'ra Sulaymon, 25].

Ko'mma, qo'ra, lo'kchayu nori – sheva so'zlari. To'ra Sulaymon she'riyati badiiyatini ta'minlashda dialektal birliklarning o'rni salmoqlidir.

Bahor o'tib yoz ham keldi, hamon sendin xabar yo'qdir.
Besohib bog'-rog'larimda qumri, sa'va, samar yo'qdir.
 Gar xayolot daryosiga g'arq bo'lsam bir **kanor** yo'qdir,
 Na-da sahro, na-da sayhon, Ko'histondin topolmasman.

Besohib – egasi yo'q, qarovsiz; tashlandiq, xarob [O'TIL, I. 416] ma'nosida qo'llanib, she'r ta'sirchanligini oshirishga sabab bo'lgan. **Kanor** – forscha so'z bo'lib, qirg'oq, chet ma'nosini anglatadi. Shevalarda ham o'zlashma so'zlar faol qo'llanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, To'ra Sulaymon xalq og'zaki ijodini puxta egallagan. She'rilarida sheva so'zlarini mahorat bilan qo'llagan. Shevalardagi nofaol so'zlarni adabiy tilga olib kirgan va adabiy tilimizni o'z qatlam so'zlari hisobiga boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG'AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION*, 1(4), 38-42.
2. O'razov, A. (2023). TILSHUNOSLIK VA UNING SATHLARI XUSUSIDA.
3. Doniyorovich, O. R. A., & Shavkatovna, A. S. (2024). O 'ZBEK TILIDA LEKSEMA TALQINI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(18), 144-146.
4. Абдуҳакимович, М. Қ., Мамарахимов, С. М., & Ўразов, А. Д. (2024). ЎТМИШДАЁҚ УНУТИЛГАН АРХАИК СЎЗЛАР “ЎЛИК СЎЗЛАР” ДИР. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 74-78.
5. Pardayeva, I., & Mahmudboyeva, F. (2022). ZARGARLIK TERMINLARINING SINTAKTIK USUL BILAN YASALISHI. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 562-564.
6. Pardaeva, I. X. (2021). Semantic Method Of Jewellery Terms Production With. *European Scholar Journal*, 2(7), 10-12.
7. Рузикулов, Ш. (2022). ЖИНСНИНГ МОРФОЛОГИК УСУЛДА ИФОДАЛАНИШИ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 148-151.

8. Akbarovich, A. A., Ixtiyor, E., & O'G, R. Z. S. I. (2024). TIL VA FAOLIYAT VA ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 4-7.
9. O'G, R. Z. S. I., Tursunkulovich, M. A., & Qizi, E. F. B. (2024). TA'LIMDA RASMIY ISH QOG'OZLARINING AHAMIYATI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 22-25.
10. Shohruh ilhom o'g, R. Z. (2024, May). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO 'Z TURKUMLARINING O'RGANILISHI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 1, No. 5, pp. 36-46).
11. Akbarovich, A. A. REFLECTION OF NATIONAL VALUES IN ARTICLES. *Pedagogika*, 171.
12. Akhrorov, A. (2019). ISSUE OF STUDYING THE" CULTURE OF SPEECH" AS A SEPARATE SCIENCE. *NEWS OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN*, 1(4).
13. Akbarovich, A. A. (2023). MAQOLLARDA UMUMYASHIRIN MA'NONING NAMOYON BO'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 163-166.
14. Jurayev, J. (2022). Ахроров Алишер Акбарович. *МАКОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI*, 11(11).
15. Ahrorov, A. (2022). O 'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
16. Axrorov, A. A. (2022). The problem of the role of proverbs in the event of a speech act. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 49-53.
17. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLG 'ON SO 'ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. *ILMIY AXBOROTNOMA*, 57.
18. Ixtiyor, E., Axrorov, A., & Mamaraximov, S. (2024). TERMINOLOGIYADA GIPERO-GIPONIMIK HODISALAR. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 12-15.
19. Latipov, M. (2024). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IS'HOQXON IBRAT ILMIY-IJODIY MEROSINING O 'RGANILISHI HAQIDA. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 9(60).
20. Djurayev, M. E., & Qozoqboyeva, D. H. (2025). BEKOBOD SHAMOLINI GEOGRAFIK BAHOLASH. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(3), 402-405.